

TALABALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING NEYROPEDAGOGIK HUSUSIYATLARI

*Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna
Namangan davlat universiteti p.f.d., professor*

Ta’lim samaradorligiga erishish uchun talimning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta’minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish o‘quvchilarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma’lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo‘lishlarini amalga oshiradi.

Kreativ so‘zi nima? *Creato lotincha so‘z bo‘lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik ma’nolarini anglatadi* [1,236]. Bir qarashda ta’lim jarayonini kreativ g‘oyalar asosida tashkil etish o‘quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdek tasavvur qoldiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan ta’lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi. [2, 26].

- umumiy nazariy bosqich;
- o‘quv bosqichi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichi.

O‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichida ta’lim mazmunining o‘quv modul (fan)lari bo‘yicha yaratilgan DTS, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi kabi me’yoriy hujjatlar, shuningdek, o‘quv manbalari (darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, yo‘riqnoma, tavsiyanoma va shu kabilar)da aks etishni ta’minlanadi. Pedagoglar o‘quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga: rioya etishlari zarur:

- g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi;
- amaliy ahamiyatga egalik;
- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- estetik talablarga muvofiqlik [3, 29].

Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o‘quv materiallari mutaxassislik yo‘nalishi va ixtisoslik sohasidan qat’iy nazar barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘la qondira oladi. Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O‘quv materiallarini o‘quvchilarga taqdim etishda savolning «Agarda ...?» deb qo‘yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham ob’ektiv, ham sub’ektiv fikrlash ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi.

Kreativlik o‘quvchilarda «nafaqat yangi g‘oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o‘quv masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko‘nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta’lim olish, o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan o‘quvchilar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha o‘quvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo‘shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo‘llaniladi. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim

ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish, masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llas, ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Tajribadan ma’lumki, o‘quvchilarning barchasi diqqati va xotirasining hajmi, uning ko‘chuvchanligi, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish tezligi, borliqni tasavvur qilishi va anglashi, “dunyoni ko‘rishi” bilan bir-biridan farq qiladi. Buning asosiy sababi – bosh miya yarimsharlarining qaysi biri inson hayoti faoliyatida etakchi ahamiyatga ega ekanligidadir. Chunki ta’lim jarayonida bosh miya chap yarimshariga tayanish faqat chap yarimsharning faol rivojlanishiga, o‘ng yarimshariga tayanish esa yarimsharlarning har ikkalasining faol iivojlanishiga olib keladi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar psixikasidagi mana shunday o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish bolaga ta’lim berish, uning tarbiyasi va kamolotidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni samarali hal etish uchun uning echim yo‘lini izlashga yangicha yondashish – muammoni majmuaviy tahlil qilish va hal etish zarur. Buning uchun barcha insonshunos mutaxassislar – pedagog, psixolog, sotsiolog va neyrologlarni, ularning tajribasi hamda ilmiy izlanishlari mahsulini birlashtirish kerak bo‘ladi. Shu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogikaning yangi sohasi sifatida kognitiv neyrologiya – neyropedagogika va neyropsixologiya shakllanayotgan bo‘lib, bu fan “insonga qanday ta’lim berish kerak?” degan oddiy, biroq o‘ta muhim savolga javob berishi mumkin.

Neyropedagogika va neyropsixologiya yo‘nalishida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik jarayonlarni inson bosh miyasida sodir bo‘ladigan neyrologik o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan o‘rganish, ya’ni neyrologiyaning pedagogika bilan sinergizmi – neyropedagogika 1997-yilda alohida fan sifatida yuzaga keldi hamda individ, subyekt va shaxsni ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarining umumiy sohasida yanada shakllandi.

Bolani intellektual rivojlantirish muammosi XXI asrda pedagogikaning etakchi muammolaridan biriga aylandi. Bu esa jamiyatda insonparvarlik g‘oyalarining dolzarbligi bilan belgilanadi. Pedagoglar ta’lim oluvchilarning har bir holatini e’tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Ular yordamga muhtoj bolalarni izlashlari va aniqlay olishlari lozim.

Pedagogik qo‘llab- quvvatlash asosida tarbiyachi tarbiyalanuvchining jismoniy, ruhiy salomatligi, intellektual rivojlanishi, bir-birlariga nisbatan o‘zaro munosabatlari,

atrof- muhitni anglashdagi yutuqlari va o‘ziga xos muammolarini xal qilishga qaratilgan oddiy, samimiy tezkor, ogohlantiruvchi yordam berib boriladi. Bugungi kunda intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T. «Fan va texnologiyalar», 2009. 236 b.
2. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Oliy o‘quv yutrlari uchun qo‘llanma. - T.: «Turon-Iqbol», 2006. 26 b.
3. G‘ulomov J. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini “Pedagogika” jurnali., №5, 2015. b. 29-35b.
4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo‘llanma – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 25b.